

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI
davlat oliy ta'lim tashkiloti

60711400 – Transport vositalari muhandisligi
bakalavriat ta'lim dasturi



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

60711400 – Transport vositalari muhandisligi

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260034
Xulosa raqami	699
Xulosa sanasi	26.05.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, 4-mavze, Saroy ko'chasi, 3-uy; litsenziya № 75 / 14.04.1992
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Transport vositalari muhandisligi
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	60711400
Akkreditatsiya usuli	joyiga chiqib
Ekspertlar guruhi raisi (F.I.Sh., lavozimi)	MAXMUDOV MUZAFFAR MIRG'AYBULLA O'G'LI – Yangi O'zbekiston Universiteti, ekspertlar guruhi raisi

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	№ 75 / 14.04.1992
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	60711400 – Transport vositalari muhandisligi
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	60711400 – Transport Vehicle Engineering
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	60711400 – Инженерия транспортных средств
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Muhandis-mexanik (avtomobil transporti bo'yicha)
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	—
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	100 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, Saroy ko'chasi, 9-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofig / muvofig emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofig / qisman muvofig / muvofig emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarining baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarning o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

I BOB. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi.

Yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilma (kafedra) tashkil etilgani, uning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari ichki nizom va reglamentlar asosida belgilanib, ta'lim dasturining maqsad va kutilgan o'quv natijalari bilan uyg'unlashtirilgani ijobiy baholandi. Xalqaro hamkorlik yo'lga qo'yilib, "Lu Ban ustaxonasi" loyihasi doirasida zamonaviy laboratoriya tashkil etilishi va qo'shimcha investitsiyalar jalb qilinayotgani qayd etildi. Ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli reja oliy ta'lim tashkilotining strategik rejasi, missiyasi va ustuvor yo'nalishlari bilan uyg'un holda ishlab chiqilgani, unda ta'lim sifati, kadrlar salohiyati, infratuzilma, raqamlashtirish, xalqaro hamkorlik va moliyaviy barqarorlik yo'nalishlari SMART tamoyillari asosida qamrab olingani e'tirof etildi. Istiqbolli rejada belgilangan vazifalar ijrosiga ta'sir qiluvchi moliyaviy, inson resurslari, moddiy-texnik va tashkiliy xavflar SWOT-tahlil va risk-matrix usullari asosida baholanib, ularni bartaraf etish bo'yicha muqobil choralar ko'zda tutilgani ijobiy jihat sifatida qayd etildi. Sifatni ichki ta'minlash mexanizmi, muntazam monitoring va qayta ko'rib chiqish tartiblari hamda manfaatdor tomonlar (talabalar, professor-o'qituvchilar, ish beruvchilar, bitiruvchilar) fikr-mulohazalarini yig'ish va tahlil qilish tizimi joriy etilgani kuzatildi. Mehnat bozori, ta'lim ehtiyojlari va ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini muntazam yig'ish, tahlil va monitoring qilish tartibi mavjudligi hamda yig'ilgan ma'lumotlar ta'lim dasturini rejalashtirish va takomillashtirishda qo'llanilayotgani ijobiy baholandi.

II BOB. Ta'lim dasturlari yo'nalishi.

Yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi. Ta'lim dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibi ichki me'yoriy hujjatlar asosida belgilangani, jarayonda

ish beruvchilar, soha mutaxassislari va professor-o'qituvchilarning ishtiroki maslahat kengashlari, seminarlar, ishchi guruhlar va so'rovnomalar orqali ta'minlangani qayd etildi. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilgan o'quv natijalari va kompetensiyalari aniq belgilanib, o'zaro uzviy bog'langani hamda ular MMR, DTS, kasbiy va xalqaro ta'lim standartlari talablariga muvofiq ishlab chiqilgani, kompetensiyalar mapping matritsasi orqali hujjatlashtirilgani izohlandi. Dastur mamlakatning barqaror rivojlanish maqsadlari hamda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik ustuvor yo'nalishlariga muvofiq shakllantirilib, mashinasozlik va transport vositalari muhandisligi sohasining zamonaviy ehtiyojlari, mehnat bozori talablari hamda kasbiy kompetensiyalar inobatga olingani ijobiy baholandi. Ta'lim dasturining davomiyligi 4 yil va umumiy hajmi 240 kredit etib, uning maqsad va o'quv natijalariga mos ravishda rejalashtirilgani, barcha tarkibiy qismlar — fanlar, modullar, amaliyot, ilmiy-tadqiqot va attestatsiya — o'rtasida mantiqiy izchillik va uzviylik ta'minlangani kuzatildi. O'quv yuklamalari fanlar kesimida nazariy, amaliy va mustaqil ta'lim shakllari o'rtasida muvozanatli taqsimlanib, mashg'ulot turlari ta'lim dasturi mazmuniga muvofiq belgilangani e'tirof etildi.

III BOB. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi.

Yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi. Ishchi o'quv reja va sillabuslar ish beruvchilar, talabalar va soha mutaxassislari jalb qilgan holda, ularning takliflari asosida ishlab chiqilgani hamda MMR, DTS, kasbiy standartlar va malaka talablariga muvofiqligi qayd etildi. Fanlar (modullar) o'quv dasturlari amaldagi qonunchilikdagi o'zgarishlar va ilg'or xorijiy tajribani qamrab olib, talabalarda hard va soft skills ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgani, fan bo'yicha baholash mezonlari aniq, adolatli va shaffof belgilangani izohlandi. O'quv jarayoni ta'lim dasturining maqsadlari va kutilgan o'quv natijalariga muvofiqlashtirilgani, ta'lim dasturi bo'yicha amaliyot bazalari mavjudligi hamda o'quv jarayoni ish beruvchilar va soha mutaxassislari bilan hamkorlikda rejalashtirilgani qayd etildi. O'quv jarayonini baholash, tahlil qilish va takomillashtirish tartibi joriy etilgani, talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi hamda ular tomonidan baholash natijalari yuzasidan taklif, fikr-mulohaza va shikoyat berish mexanizmi mavjudligi ijobiy baholandi. Ta'lim dasturida akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyatga oid tartib-qoidalar ("Akademik halollik kodeksi", "Odob-axloq qoidalari", plagiatga qarshi kurash reglamenti) ishlab chiqilgani va amaliyotga joriy etilgani e'tirof etildi.

IV BOB. Talabalar faoliyati yo'nalishi.

Yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi. Ta'lim dasturiga qabul mezonlari va talablari amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda ichki reglamentlar asosida aniq belgilanib, ularni abituriyentlar va manfaatdor tomonlarga ochiq yetkazish mexanizmi mavjudligi qayd etildi. Qabul jarayonlari davlat ta'lim standartlari va qabul nizomlariga muvofiq tashkil etilgani, abituriyentlarning qabul natijalari haqida o'z vaqtida va ochiq ma'lumot olish imkoniyati hamda shikoyat (apellyatsiya) berish mexanizmi joriy etilgani ijobiy baholandi. Qabul parametrlari oliy ta'lim tashkilotining auditoriyalari, laboratoriyalari, amaliyot bazalari va infratuzilma quvvatiga, Axborot-resurs markazi imkoniyatlariga, professor-o'qituvchilar soni va ish yuklamasiga, moliyaviy imkoniyatlariga hamda strategik rejasi va akademik profiliga muvofiq belgilangani, shuningdek sohaviy mehnat bozori tahlili va ish beruvchilar takliflari asosida shakllantirilgani kuzatildi. Talabalar harakati — o'qishni ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish, qayta tiklash va chetlashtirish — bo'yicha ichki hujjatlar normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgani hamda mazkur jarayonlar bo'yicha shikoyat berish imkoniyati mavjudligi e'tirof etildi. Talabalarni akademik, psixologik, ijtimoiy va kasbiy yo'nalishlarda qo'llab-quvvatlash va maslahat berish tizimi yo'lga qo'yilgani ijobiy baholandi.

V BOB. Inson resurslari yo'nalishi.

Yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi. Ta'lim dasturini amalga oshirish uchun professor-o'qituvchilar tarkibi shakllantirilgani, ularning mutaxassisligi, ilmiy darajasi va pedagogik tajribasi ta'lim yo'nalishiga mosligi qayd etildi. Ilmiy daraja va unvonga ega professor-o'qituvchilarni jalb qilish bo'yicha tizimli yondashuv, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar tarkibini namunaviy shtatlar (ro'yxat raqami 2859) talablari asosida shakllantirish amaliyoti mavjudligi izohlandi. Yangi ta'lim dasturi uchun kadrlar ehtiyoji tahlil qilingani, fanlar (modullar) bo'yicha zarur mutaxassisliklar va kompetensiyalar aniqlangani, yangi kadrlarni tanlov, konkurs va grant orqali jalb qilish strategiyalari hamda ishga qabul qilish va kadrlar zaxirasini yaratish mexanizmi belgilangani ijobiy baholandi. Xorijiy mutaxassislar va amaliyotchi ekspertlarni jalb qilish imkoniyatlari, ilmiy darajasi yuqori kadrlarni tayyorlash va doktorlikka maqsadli yo'naltirish choralari ko'zda tutilgani qayd etildi. Kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, ilmiy maqolalar chop etish va

innovatsion g'oyalarni ilgari surishni moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi hamda kasbiy rivojlanish natijalarini baholash va hisobga olish mexanizmi mavjudligi e'tirof etildi.

VI BOB. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi.

Yo'nalish bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholandi. Ta'lim dasturi bo'yicha amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar va xomashyo materiallari mavjudligi hamda ular ta'lim dasturining maqsad va o'quv natijalariga muvofiq tanlangani qayd etildi. Fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan ta'minlangani, fanlar bo'yicha o'qitish materiallari va raqamli ta'lim resurslarining elektron kutubxona va o'quv platformalariga joylashtirilgani izohlandi. O'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxonalar talabalar sonidan kelib chiqib ta'lim dasturiga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani, mehnatni muhofaza qilish, sanitariya, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilingani e'tirof etildi. Inklyuziv ta'lim uchun binolar va jihozlar moslashtirilgani (panduslar, liftlar, keng eshiklar, moslashtirilgan sanitariya xonalari), maxsus o'quv materiallari va AKT vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani qayd etildi. Axborot-resurs markazi ta'lim dasturiga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar, o'quv zali va elektron kutubxona bilan ta'minlangani hamda raqamli ta'lim muhiti (HEMIS/LMS, Wi-Fi zonalari, onlayn kurslar, masofaviy ta'lim, axborot xavfsizligi himoyasi) yaratilgani ijobiy baholandi. Ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib sport zali, stadion, maxsus laboratoriya va studiyalar kabi maxsus xona va inshootlar mavjudligi kuzatildi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi.

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan kichik kamchiliklar:

- ✓ Ta'lim dasturini rivojlantirish, sifatni ichki ta'minlash hamda monitoring jarayonlarining amaliy natijadorligini tasdiqlovchi qo'shimcha hisobotlar, bayonnomalar va monitoring natijalarini to'liqroq hujjatlashtirish.

- ✓Manfaatdor tomonlar (ish beruvchilar, soha mutaxassislari, talabalar) ishtiroki natijasida ta'lim dasturiga kiritilgan aniq o'zgarishlar va ularning samaradorligini tasdiqlovchi hamkorlik bayonnomalari hamda tahliliy hisobotlarni kuchaytirish.
- ✓O'quv reja va fan dasturlarining MMR, DTS va xalqaro standartlarga muvofiqligini ko'rsatuvchi solishtirma (mapping) jadvallar, kompetensiyalar matritsasi hamda ichki ekspertiza xulosalarini to'ldirib borish.
- ✓Moddiy-texnik baza, laboratoriya jihozlari va Axborot-resurs markazi fondi bo'yicha inventarizatsiya ro'yxatlari, texnik pasportlar, foydalanish va yangilanish statistikasini aks ettiruvchi dalillarni tizimlashtirish.
- ✓Raqamli ta'lim muhiti (HEMIS/LMS), masofaviy ta'lim platformalari hamda elektron baholash va feedback tizimidan foydalanish yuzasidan aynan mazkur ta'lim yo'nalishi kesimida aniq misollar, skrinshotlar va foydalanish statistikasini taqdim etish.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓Ta'lim dasturini rivojlantirish, monitoring va sifatni ichki ta'minlash jarayonlarining amaliy natijalarini muntazam hujjatlashtirish hamda ichki audit va baholash mexanizmlari samaradorligini tasdiqlovchi statistik va tahliliy ma'lumotlarni kuchaytirish.
- ✓Ish beruvchilar va talabalar fikr-mulohazalari (feedback) asosida ta'lim dasturiga kiritilgan aniq o'zgarishlarni bayonnoma va hisobotlar bilan rasmiylashtirish, xalqaro standartlarga muvofiqlikni ko'rsatuvchi mapping jadvallar va ekspertiza xulosalarini to'ldirish.
- ✓Moddiy-texnik baza, laboratoriya jihozlari va Axborot-resurs markazi resurslari bo'yicha inventarizatsiya hujjatlari, texnik pasportlar hamda foydalanish va yangilanish ko'rsatkichlarini aks ettiruvchi statistik ma'lumotlarni tizimlashtirish.
- ✓Raqamli ta'lim muhiti, masofaviy ta'lim platformalari, elektron baholash va axborot xavfsizligi tizimlaridan foydalanishni ta'lim yo'nalishi kesimida aniq misollar, reglamentlar va dalillar bilan mustahkamlash.

8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Guliston davlat universitetida “Transport vositalari muhandisligi” (60711400) bakalavr ta'lim dasturini tashkil etish yuzasidan joyiga chiqib o'rganish natijasida tashkiliy-boshqaruv, ta'lim dasturlari, o'quv jarayonini tashkil etish, talabalar faoliyati, inson resurslari hamda moddiy-texnik ta'minot yo'nalishlari bo'yicha holat tahlil qilindi. O'rganishlar natijasida ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quv-uslubiy ta'minot, inson resurslari, talabalar faoliyati hamda moddiy-texnik baza bo'yicha zarur tizim va mexanizmlar shakllantirilgani kuzatildi. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilgan o'quv natijalari va kompetensiyalari milliy standartlar hamda mehnat bozori ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirilgani, o'quv jarayonida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, raqamli texnologiyalar va amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim elementlaridan foydalanish yo'lga qo'yilgani ijobiy baholandi. Shu bilan birga, ayrim mezonlar bo'yicha natijadorlikni tasdiqlovchi statistik, tahliliy va monitoring ma'lumotlarini kengaytirish, ish beruvchilar va talabalar feedbacklari asosida amalga oshirilgan aniq o'zgarishlar hamda xalqaro hamkorlik va moddiy-texnik resurslardan foydalanish ko'rsatkichlarini yanada batafsil yoritish zarurligi qayd etildi. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan talablarga mos ravishda tashkil etilgan bo'lib, uni xalqaro standartlar va zamonaviy mehnat bozori ehtiyojlari asosida yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud. Ekspert komissiyasi xulosasiga ko'ra, “Transport vositalari muhandisligi” ta'lim dasturi maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish uchun muvofiq deb baholanadi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	05.06.2026-yil
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	2-son
Yakuniy qaror (<i>akkreditatsiyadan o'tdi/akkreditatsiyadan o'tmadi</i>)	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

